

**“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARINING
YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI**

1-SON BAYONI

2023-yil 26-oktabr

soat 12:00

Navoiy sh.

Yig‘ilishda qatnashganlar:

Yig‘ilish raisi

J.A. Qo‘chqorov – O‘zbekiston Respublikasi
Bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya
vaziri

Aksiyadorlar

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
aksiyadorlari va ularning ishonchli vakillari
(2023-yil 26-oktabr holatiga tuzilgan
aksiyadorlar reestriga asosan)

Taklif etilganlar:

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
ijroiya organi xodimlari:**

Q. Sanaqulov, A. Ravshanov, Ye. Antonov,
Q. Taparov, Sh. Aminov, M. Xaitova,
U. Qodirov, R. Avezov.

**“Deloitte and touche” MChJ
auditorlik tashkilotining vakili**

E. Ayupov

Yig‘ilishga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya vaziri – J.A. Qo‘chqorov raislik qildi.

Umumiy yig‘ilish “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 3-oktabrdagi majlisi qaroriga asosan o‘tkazildi.

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi tomonidan 2023-yil 20-oktabr holatiga “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – “NKMK” AJ) aksiyadorlari reestriga muvofiq, ovoz berish huquqini beruvchi aksiyalar egalari ro‘yxati taqdim etilgan.

Aksiyadorlarni ro'yxatdan o'tkazish vaqti tugaganda, ovoz beruvchi aksiyalarga ega bo'lgan 2 ta aksiyador ro'yxatdan o'tdi:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi – 14 700 000 000 dona oddiy aksiya yoki 98,0 foiz.

2. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi – 300 000 000 dona aksiya yoki 2,0 foiz.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 68-moddasiga muvofiq, agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tamom bo'lgan paytga kelib, “NKMK” AJning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 foizidan ko'piga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

Umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning **100 foizi** qatnashganligi sababli, kvorum mavjud.

Yig'ilish raisi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini ochiq deb e'lon qildi va aksiyadorlar tomonidan kun tartibidagi masalalar ko'rib chiqildi.

KUN TARTIBI:

- 1. “NKMK” AJ aksiyadorlar umumiy yig'ilishi raisi va kotibini tayinlash.*
- 2. “NKMK” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.*
- 3. “NKMK” AJ Sanoq komissiyasi a'zolarini shaxsiy tarkibini tasdiqlash.*
- 4. “NKMK” AJ Kuzatuv kengashining 2022-yil yakunlari bo'yicha hisobotini eshitish.*
- 5. “NKMK” AJning 2022-yil moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini eshitish.*
- 6. “NKMK” AJning 2022-yil uchun yillik moliyaviy va emitentining 2022-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotlarini ko'rib chiqish.*
- 7. “NKMK” AJning 2022-yil yakuni bo'yicha olingan so'f foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibini belgilash.*
- 8. “NKMK” AJning tashkiliy tuzilmasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risida.*
- 9. “NKMK” AJ Kuzatuv kengashi yangi tarkibini saylash to'g'risida.*